ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

DJABBAROVA ZULFIYA RUSTAMOVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “LITOTA” KONSEPTUAL SEMANTIKASINI IFODALOVCHI TIL BIRLIKLARINING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Andijon – 2026

UO‘K: 811.111'373.7:502

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Djabbarova Zulfiya Rustamovna
Ingliz va o‘zbek tillarida “Litota“ konseptual semantikasini ifodalovchi til birliklarining lingvokognitiv xususiyatlari 3

Djabbarova Zulfiya Rustamovna
Linguocognitive peculiarities of language units expressing the conseptual semantics of "Litotes" in English and Uzbek 25

Джаббарова Зулфия Рустамовна
Лингвокогнитивные свойства языковых единиц, выражающих концептуальную семантику «Литота» в английском и узбекском языке 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ 52

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

DJABBAROVA ZULFIYA RUSTAMOVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “LITOTA” KONSEPTUAL SEMANTIKASINI IFODALOVCHI TIL BIRLIKLARINING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Andijon – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil1799 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Andijon davlat chet tillari instituti veb-sahifasining (www.adchti.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalining (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Vositov Valijon Abduvaxobovich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Xamroyeva Shaxlo Mirdjanovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Najmiddinov Ahmad Rahmatovich filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 raqamli Ilmiy kengashining 2026-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 5-uy, Tel.: (99874) 223-42-76; faks: (99874) 223-42-76).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 5-uy, Tel.: (99874) 223-42-76; faks: (99871) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “_____” _____ dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.Dj.Ataboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.A.Abduvaliyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida litota badiiy tasvir vositasi turli til oilasiga mansub jihatlarini tadqiqi qilish, tarjimada ekvivalentlarini topish, hamda bu boradagi ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish tilshunoslarning e'tibor markazida bo'lib kelgan. O'rganilayotgan ushbu litota tasviriy vositasini ifodalovchi til birliklarini qiyosiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish, ularning semantikasi, o'zaro tarjimasi, kognitiv xususiyatlarini aniqlash zaruratining o'sishi mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Ingliz va o'zbek tillaridagi litotani ifodalovchi til birliklarining lingvokognitiv xususiyatlarini tadqiq etish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunoslari tomonidan litota uslubiy vosita sifatida lingvokognitologiya, semasiologiya, lingvokulturologiya, pragmalingvistika, muloqot diskursi kabi yo'nalishlarning negizida keng o'rganilmoqda. Litota tilning mustaqil kategoriyasi sifatida til sohiblarining kognitiv tizimiga tayangan holda lisoniy kod orqali faollashadi. Shu tariqa litota obyektiv olamning bir parchasi bo'lib, til hodisasi sifatida alohida dunyoqarashni aks ettiradi. Litotaning nutqda qo'llanilishi har qaysi xalqda turlicha namoyon bo'ladi. Shuning uchun litotaa murakkab, serqirrali hodisa bo'lib, shaxsning kognitiv bazasiga tayangan holda, ma'lum bir madaniy va lisoniy olam manzarasini shakllantirishga xizmat qiladi. Litotaning nutqiy vaziyatlarda voqelanishi muloqot madaniyati tushunchasini vujudga keltirib, uning tadqiqida individual-psixologik yondashuvni ta'minlaydi. Har qaysi yondashuvni e'tiborga olgan holda litotani tadqiq qilish tilshunoslikda bu boradagi nazariy qarashlarni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Mamlakatimizda chet tillarini o'rgatish tizimini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh, har jihatdan mukammal kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Binobarin, bugungi kunda har bir sohada mavjud bo'lgan dolzarb masalalarni ilm-fan yutuqlari asosida hal etish katta ahamiyatga ega. Buning uchun "nufuzli xorijiy universitetlar, ilmiy va innovatsion markazlar bilan aloqalarni kuchaytirish, ular bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirish zarur"[1]. Shu jumladan, ilm-fan va innovatsiya rivojlangan bir pallada, nafaqat xorijiy tillarni, balki shu tilda so'zlashuvchilar madaniyatini bilish muhim ahamiyatga ega. Bu esa tillarni qiyosiy tahlil qilish hamda chuqurroq izlanish olib borish zaruriyatini tug'diradi. Shu boisdan hozirgi ingliz va o'zbek tilida litotani ifodalovchi til birliklarining umumiy hamda farqli jihatlarini tahlil qilish, o'zaro tarjimasidagi muammolar va pragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda leksikografik talqini bo'yicha takliflar ishlab chiqish dolzarb sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4997-son, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi

[1] Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/oz/lists/view/5774 – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. (Murojaat sanasi: 19.06.2025).

Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PF-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida litota hodisalarning o‘rganilishi ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, jahon va o‘zbek tilshunosligida bu mavzuga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan. Dunyo tadqiqotchilaridan D.J.Inrait, K.Allan, K.Buridje, T.Wouden, L.Nehaus, H.A.Rauson, Y.Yuan, A.Lida and K. Warchal, T.Szczygłowska[2]; rus olimlaridan I.V.Arnold, A.V.Rodchenko, E.P.Senichkina, M.A.Kirilenko, E.E.Razlogova, M.V.Evsina, T.N.Abakova, S.A.Minyaeva, E.V.Beletskaya, S.V.Skubina, O.N.Batyushina, I.V.Trubyanova, N.Yu.Stepanova, K.V.Yakushkina, O.V.Tsepordey, I.A.Kotyurova, O.N.Bolobuyev[3]; o‘zbek tilshunosligida

[2] Enright D.J. Fair of Speech, the Use of Euphemism. – Oxford: Oxford University Press, 1986; Allan K., Burridge K. Euphemism and Dysphemism. – USA: Oxford University Press, 1991; Wouden, T. van der (1995) Litotes and downward monotonicity. Available at http://odur.let.rug. nl/vdwouden/docs/leipzig.pdf.; Neuhaus, L. (2016) On the relation of irony, understatement, and litotes. Pragmatics and Cognition 23(1), 117–149.; Rawson H.A. Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk. – Edison N.J.: Castle Books, 2002.; Yuan, Y. (2017) The argumentative litotes in The Analects. Argument & Computation 8, 253–266.; Lyda A. and K. Warchał (2011) Ethnic and Disciplinary Cultures and Understatement: Litotic Constructions in Polish and English Linguistics and Biology Research Articles. In: Arabski, J. and A. Wojtaszek (eds) Aspects of Culture in Second Language Acquisition and Foreign Language Learning, 193–216. Berlin, Heidelberg: Springer.; Szczygłowska T. Litotes in English research articles: disciplinary variation across life and social sciences. LINGUISTICA PRAGENSIA 1/2020. – Pp. 52-70. file:///C:/Users/tsnqb/Downloads/Litotes_in_English_research_articles_disciplinary.pdf.

[3] Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Ленинград: Просвещение, 1973. - 303 с.; Родченко А.В. Средства эвфемии в современном испанском языке: Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – Москва, 2000. – 24 с.; Сеничкина Е.П. Семантика умолчания и средства её выражения в русском языке: Автореф.дисс. ...д-ра филол.наук. – Москва, 2003. – 36 с.; Кириленко М.А. Жанрово-стилистические особенности рекламы мобильной связи: Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – Москва, 2004. – 20 с.; Разлогова Е.Э. Логико-когнитивные и стилистические аспекты семантики модальных слов: Автореф.дисс. ...д-ра филол.наук. – Москва, 2005. – 60 с.; Евсина М.В. Двойное отрицание в простом предложении: Автореф.дисс. ...д-ра филол.наук. – Москва, 2006. – 20 с.; Абакова Т.Н. Парадигматические отношения эвфемизмов и дисфемизмов современного английского языка: Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – Москва, 2007. – 22 с.; Миняева С.А. Соматическая лексика в поэзии М.И.Цветаевой: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Москва,

A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, H.Rustamov, E.Qilichev, T.Boboyev, V.A.Vositov, G‘.M.Xoshimov, F.B..Abduraximova, A.I.Ziyayev, Z.X.Raimjonov, Sh.B.Dushatova[4] kabilarni bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. Ularda litotaning turli xususiyatlari, hosil bo‘lish usullari, vujudga kelish sabablari haqida qimmatli fikrlar o‘z ifodasini topgan.

Ko‘plab olimlar fikriga ko‘ra, adabiy asarlarda “litota konseptual semantikasini ifodalovchi bir qator til birliklari mavjudligi ta’kidlanadi, biroq ularning kognitiv yoki konseptual semantikasini ifodalovchi til birliklarining lisoniy jihatlari hanuzgacha tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan Oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Zamonaviy lingvokulturologiya va pragmalingvistikaning dolzarb masalalari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida litota konseptual semantikasini ifodalovchi til birliklarining lingvokognitiv xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o‘zbek tillarida litota stilistik vositasining genezisi, evolyusiyasi va til tizimida tutgan o‘rnini yoritish.

ingliz va o‘zbek tillarida litota konseptual semantikasini ifodalovchil birliklarining leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash.

ingliz va o‘zbek tillarida litota stilistik vositasining lingvokulturologik jihatlarini ochib berish.

2007. – 20 с.; Белецкая Е.В. Моделирования особенностей конструирования метафоры: Автореф.дисс. ...д-ра филол.наук. – Тверь, 2007. – 20 с.; Скубина С.В. Образные художественные средства в романе Марка Твена «Приключение Тома Сойера» (а подлиннике и переводах): Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Краснодар, 2008. – 25 с.; Батюшкина О.Н. Социолингвистическое содержание французских справочных изданий (на материале выражений вежливости): Автореф.дисс. ...канд. филол.наук. – Москва, 2009. – 26 с.; Трубянова И.В. Синонимы как стилистическое средство выразительности в поэзии Г.Матюковского: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Йошкар-Ола, 2009. – 23 с.; Степанова Н.Ю. Контраст как средство создания комического эффекта (Лингвостилистический аспект): Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Москва, 2009. – 21 с.; Якушкина К.В. Лексико-грамматические средства эвфемии в языке газет Испании: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Санкт Петербург, 2009. – 25 с.; Цепордей О.В. Лексико-семантические средства выражения модальности в художественных произведениях прозы Э.М.Ремарка и их переводах на русский язык: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Краснодар 2009. – 22 с.; Котюрова И.А. Лингвокогнитивный аспект иронических высказиваний в современной немецкой публицистике: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Санкт Петербург, 2010. – 24 с.; Волобуева О.Н. Концептуальное поле «Человек и его интеллект» в русской и английской фразеологии: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Тюмень, 2011. – 23 с.; Гужова Т.А. Гиперболический способ выражения в современном немецком языке: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Москва, 2013. – 21 с.

[4] Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. - 247 б.; Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 159 б.; Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 558 б.; Воситов В.А. Жаҳон тилларида полинегативлик ва мононегативлик муаммоси: Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 141 б.; Хошимов Ғ.М., Абдурахимова Ф.Б. Турли тизимли тилларда антигиперболанинг лингвостилистик мақоми // Когнитив тилшунослик ва филологиянинг долзарб масалалари. – Фарғона, 2017. – Б. 100.; Раимжонов З.Х. Француз ва ўзбек тилларида интенсивлик категориясининг чоғиштирма тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. ...автореф. – Тошкент, 2019. – 49 б.; Зияев А.И. Тилда интенсификация/деинтенсификация семантикасининг лисоний бирлик ва шакл парадигмаларини ҳосил қилиши: Филол.фан.д-ри...дисс.автореф. – Фарғона, 2020. – 74 б.; Dushatova Sh.B. Evfemizmlarning lisoniy va lingvomadaniy tadqiqi (ingliz, rus va o‘zbek tillari misolida): Filol.fan.b.fals.dokt. (PhD) ...diss. – Farg‘ona, 2025. – 180 б.

ingliz va o‘zbek tillarida litota hodisasining funksional-semantik va kommunikativ-semantik tomonlarini lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillari badiiy asarlar va so‘zlashuv uslublarida qo‘llanilgan litota hodisasini ifodalovchi birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillarida litota hodisasini ifodalovchi til birliklarining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda chogishtirma, qiyosiy, struktur, tavsiflash, statistik va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida litota stilistik vositasining genezisi, evolyutsiyasi va til tizimidagi o‘rni kompleks lingvokognitiv paradigmada sistemali tahlil etilib, qiyosiy-tipologik jihatdan nazariy asoslanib, tilning ekspressiv imkoniyatlarini boyitadigan universal vosita sifatida dalillangan;

ingliz va o‘zbek tillarida litotani ifodalovchi til birliklarning (inkor yuklamalari, antonimik juftliklar, evfemik so‘zlar) semantik tarkibi, valentligi, konnotativ ma’nolari (muloyimlik, kinoya, kamtarlik) va ularning nutqiy voqelanish chastotasi sistemali tahlil qilinib, leksik-semantik paradigmasi, uning markaziy va periferik zonalari, universal va etnospetsifik xususiyatlari ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi litota stilistik vositasining lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinib, uning har ikki lingvomadaniyatga xos mentalitet va lingvokulturologik fenomen ekanligi nazariy jihatdan isbotlangan;

“Litota” konseptual semantikasi yaxlit lingvopragmatik va kognitiv-madaniy paradigma doirasida o‘rganilib, uning ingliz va o‘zbek tillaridagi funksional-semantik (ma’noni shakllantirish) va kommunikativ-sintaktik (nutqda voqelanish) jihatlari lingvomadaniy omillar bilan uzviy aloqadorlikda ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ingliz va o‘zbek tillarida litota stilistik vositasini ifodalovchi birliklarning qiyosiy tadqiqi natijalaridan umumiy tilshunoslik, stilistika, kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya kabi sohalarga doir tadqiqotlar yaratishda foydalanish mumkinligi dalillangan.

Badiiy asarlar va so‘zlashuv uslublari materiallari asosida toplangan litotani ifodalovchi vositalar ingliz va o‘zbek qiyosiy tilshunosligini boyitishga xizmat qilishi amaliy isbotlangan.

Ingliz va ozbek tillaridagi badiiy asarlar jonli suhbatlardagi litotani ifodalovchi vositalar turli tizimli tillar uslubiyatini yoritish asosida uslubshunoslik sohalari uchun muhim nazariy qarashlarning shakllanishiga asos bolishi korsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tahlilga tortilgan materiallar tilning immanent tabiatidan kelib chiqib xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosliligi, metodologik mukammalligi, lug‘aviy manbalarda keltirilgan ma’lumotlarning ishonchliligi, shuningdek, qo‘yilgan masalalarning aniqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chog‘ishtirilayotgan tillarda litota hodisasining konseptual semantikasini ifodalovchi til birliklarning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari yuzasidan chiqarilgan ilmiy nazariy xulosa va tavsiyalar umumiy tilshunoslik, stilistika, kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya bilan bo‘gliq ilmiy-nazariy qarashlarni toldiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya natijalari oliy o‘quv yurtlarida ma’ruzalar, maxsus kurslar, amaliy mashgulotlar olib borish hamda umumiy tilshunoslik, stilistika, kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya boyicha yaratilgan o‘quv qollanmalarning mukammallashuvi uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida “Litota” konseptual semantikasini ifodalovchi til birliklarning lingvokognitiv xususiyatlari tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek tillarida litota stilistik vositasining genezisi, evolyutsiyasi va til tizimida tutgan o‘rni Qarshi davlat universitetida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21-GR-3181 “Reinforcing English Language competence at “Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 26-fevraldagi 04/749-son ma’lumotnomasi). Natijada, maqolada ilgari surilgan qator taklif va tavsiyalar, ilmiy yangiliklar asosida dastur va qo‘llanmalarni yaratishga, ta’lim hamda madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlarni yanada samarali tashkil etishga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida litota konseptual semantikasini ifodalovchi til birliklarining leksik-semantik xususiyatlari borasidagi ilmiy yangiliklardan Toshkentdagi AQSH Elchixonasi tomonidan moliyalashtirilgan “The English Access Micro Scholarship Program” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida, tadqiqot natijalaridan Samarqand davlat çet tillar institutida Yevropa ittifoqining Erasmus + dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational linguistics at Central Asian universities” grant loyihasi dissertatsiyasi ilmiy natijalaridan foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 17-fevraldagi 468/02 son ma’lumotnomasi). Natijada, loyihada ilgari surilgan qator taklif va tavsiyalar, ilmiy yangiliklar asosida dastur va qo‘llanmalarni yaratishga, ta’lim hamda madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlarni yanada samarali tashkil etishga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi litota stilistik vositasining lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinib, uning har ikki lingvomadaniyatga xos mentalitet va lingvokulturologik fenomen ekanligi 2023-2024-yillarda bajarilgan 1-203-4 raqamli O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy-ma’rifiy muassasalar nomoddiy milliy merosni rivojlantirish sho‘basi tomonidan o‘zbek xalqining boy milliy til an’analari, nomoddiy madaniy merosi, ijtimoiy qadriyatlarimizning millatlararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va aloqalarni mustahkamlash borasida tuzilgan ”Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg‘unlashtirish” nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekistan Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 16-iyuldagi 02-14-06-908 son ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz va

o‘zbek tillaridagi badiiy asarlar jonli suhbatlardagi litotani ifodalovchi vositalar turli tizimli tillar uslubiyatini yoritish asosida uslubshunoslik sohalari uchun muhim nazariy qarashlaming shakllanishiga asos bo‘lishi ko‘rsatib berilgan. Bu jihatlar ushbu ishning ilmiy yangiligini belgilaydi va foydalanilgan ilmiy-metodik tavsiyalar loyiha ishlanmalarining takomillashishiga xizmat qildi;

“Litota” konseptual semantikasi yaxlit lingvopragmatik va kognitiv-madaniy paradigma doirasida o‘rganilib, uning ingliz va o‘zbek tillaridagi funksional-semantik (ma’noni shakllantirish) va kommunikativ-sintaktik (nutqda voqelanish) jihatlari lingvomadaniy omillar bilan uzviy aloqadorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasi tomonidan 2023-2024-yillarda tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” nomli dasturlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 21-fevraldagi 05-09-214-son ma’lumotnomasi). Natijada, tadqiqot usullari va ilmiy-nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalarga bog‘liqligi, tahlil va tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari orqali asoslanganligi, shuningdek, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etilishi nutqning yaxshiroq ifodalanishi va ravon bo‘lishiga yordam berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 9 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika hamda 4 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan; muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan; ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tilshunoslikda “Litota” stilistik vositasining nazariy asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bob 2 fasldan iborat.

Bobning “*Litota stilistik vositasining o‘rganilish tarixi*” nomli birinchi faslida “Litota” stilistik vositasining genezisi, tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi masalalari yoritilgan. Litota stilistik vositalarning ichida eng kam tarqalgan vositalardan biri hisoblanadi. So‘zlovchi muloqot jarayonida suhbatdoshiga kuchli ta’sir o‘tkazish maqsadida, o‘zining kommunikativ-pragmatik muddaosi-maqsadi, ya’ni biron bir predmet yoki hodisaning u yoki bu tavsifni ham ijobiy ham negativ

fikr bildirish asnosida “litota kognitiv/konseptual semantikasi”ni to‘laqonli voqelantirish niyatida litota stilistik vositasi yordamida muloqotdagi nutqning vaziatga monand ravishda, ta’sirchan va ifodali chiqishiga harakat qiladi. Litotaning o‘ziga xos tabiati shunday bir muhim omil bilan bog‘liqki, uning lingvokognitiv asosi bo‘lgan “Litota” konseptual semantikasi tilda so‘zlovchi va yozuvchi, sog‘lom fikrlovchi har bir insonning tafakkurida mavjud bo‘lgan, aynan olingan sotsium tomonidan me’yorlashtirilgan, shu bois sotsium konseptosferasida o‘z ifodasini topgan idrokiy hodisa bo‘lib, bunday semantika qonuniy ravishda har qanday jonli tilda o‘ziga xos, verbal va noverbal vositalarning maxsus tizimi orqali voqelantirilmay iloji yo‘q.

Litota - biror narsaning teskarisini inkor etish yoki kamaytirish orqali vaziyat yoki fikrni ta’kidlash uchun ishlatiladigan lingvistik vosita. Bir qarashda buning aksini bildiruvchi ibora yordamida tuziladi. Masalan, “*yomon emas*” o‘rniga “*yaxshi*”, “*arzimas*” o‘rniga “*muhim*” qo‘llaniladi. Litotalar intensivlik toifasiga kiradi, chunki ular vaziyat yoki sifatning intensivligi yoki ahamiyatini tasvirlash uchun ishlatiladi. Ifodani qisqartirish yoki inkor etish orqali u fikr yoki vaziyatni mustahkamlaydi va diqqatni tortadi. Litota urg‘u yaratish yoki muayyan effektni etkazish uchun ishlatiladigan lingvistik vositadir. Litota bu turkumda kuchaytiruvchi qo‘shimchalar yoki prefikslar, kuchaytiruvchi qo‘shimchalar yoki kuchaytiruvchi iboralar kabi lingvistik birliklar yordamida zichlikni oshirish uchun ishlatiladi [5].

Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasini «lisoniy jarayonlar, lisoniy birlik va kategoriya kabilarni ularning xotira, tasavvur, idrok, ong bilan munosabatida o‘rganish» deb bilgan E.S.Kubryakova[6] keyinchalik ushbu vazifani «lisoniy strukturalar va bilim strukturasi o‘rtasida mavjud bo‘lgan doimiy muqobillikni yoritish» darajasigacha kengaytirdi[7].

Til birliklarining konseptual imkoniyati – ularning o‘z semantik ko‘lami bilan qanday konseptlarning mohiyatini namoyon qila olishidir. Lisoniy yoki nutqiy ifoda serqirra va polifunksional tabiatga ega, o‘z semantik ko‘lamining kenglik darajasiga bog‘liq ravishda turli konseptual mohiyatlarning reprezentatori maqomida bo‘lishi mumkin[8].

Troplar so‘zlovchi tomonidan tinglovchiga muayyan bir axborotni yoki fikrni yanada ta’sirli yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Biror bir narsaning nomini, belgisini boshqasiga ko‘chirish yoki nutqda so‘z va iboralarning ko‘chma ma’noda ishlatilishi tropning[9] asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Tinglovchining tasavvur olamini kengaytirishga, fikrlashga hamda mushohada qilishga undovchi tasvirning badiiy vositalarini bir nom ostida birlashtirib ko‘chim, deb ayta olish mumkin, lekin ko‘chimlarni adabiyotlarda

---

[5] Безрукова В. В. Интенсификация и интенсификаторы в языке и речи: На материале английского языка 2004. – С. 180.

[6] Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва, 2004. – С. 120.

[7] Алиференко Н.Ф. Этноэйдемический концепт и внутренняя форма языкового знака // Вопросы когнитивной лингвистики. – Тамбов, 2004. – С. 70.

[8] Рустамова Д. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспектлари: Филол.фан.б.фалс.докт. ...дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – Б. 50.

[9] Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 2009. – B. 9-10.

turlicha nomlash holatlari kuzatiladi. Ijodkor uyg‘un narsa yoki hodisani uning ulug‘vorligi hamda qudratiga nisbatan kichraytirib tasvirlaydi. Masalan:

Bu so‘zning mazmuni shu qadar issiq,

Quyosh bir kichik sham uning yonida. (Uyg‘un)

Litota stilistik vositasida qandaydir umumiy xususiyat asosida ikkita geterogen hodisa taqqoslanadi, lekin bu xususiyat taqqoslash hodisasi-obyektiga qaraganda ancha kam darajada ifodalanadi. Masalan: “*Mushukdek kattalikdagi ot*”, “*Insonning umri bir lahza*” va h.k.

Litota (yunoncha *litotes* – soddalik, ozchilik) – bu badiiy tasvir vositasi (trop) bo‘lib, biror narsa yoki hodisaning belgisi, miqdori yoki sifatini ataylab kuchsizlantirib, kamaytirib ko‘rsatish (kamsitish) san’atidir. Litotaning ikkinchi nomi meiyozisdir. Litotaning qarama-qarshi tomoni esa giperboladir. Ingliz tilidagi bosma nashrlardan litografik konstruksiyalarni tanlash misolida litota ham lingvistik, ham ekstralingvistik parametrlarni, xususan: uning semantik, strukturaviy, pragmatik xususiyatlarini hamda ushbu uslubning shakllanishiga asos bo‘lgan kognitiv mexanizmlarni hisobga olgan holda tahlil qilinadi[10].

Tilshunoslikda inkor ko‘pincha biror narsaning yo‘qligini yoki qarama-qarshiligini bildiruvchi so‘z yoki morfemalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz tilida gaplarni inkor qilish uchun “not”, “no”, “none” kabi vositalar ishlatiladi. Litota aslida inkor gapning ma'nosini pasaytirish yoki yumshatishda markaziy rol o‘ynaydi. Inkor qilish orqali so‘zlovchi fikrlarini bilvosita yoki istehzoli tarzda yetkazishi mumkin. Misol uchun “yaxshi” degan ma’noni anglatuvchi “yomon emas” deyish litotaning bir shakli bo‘lib, bunda inkor (“emas”) bayonotning ijobiyligini pasaytiradi. Inkor prefikslar so‘zning ma’nosini o‘zgartirish yoki yangi so‘z yasash uchun so‘z boshiga qo‘shiladigan morfemalardir. Litota kontekstida “*un*-”, “*in*-”, “*non*-” va “*dis*-” kabi salbiy prefikslar so‘zning ma’nosini kamaytirish yoki inkor qilish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “*important*” so‘ziga ga “*un*-” prefiksini qo‘shish orqali “*unimportant*” shakli hosil bo‘ladi, bu esa biror narsaning ahamiyatini kamaytirib, litotik effektga hissa qo‘shadi.

Qo‘shimchalar - so‘zning ma'nosini o‘zgartirish yoki yangi so‘z hosil qilish uchun so‘z oxirida qo‘shiladigan morfemalar. Affikslar, ya’ni so‘z yasovchi va shakl yasovchi morfemalar, inkor birliklari hamda prefikslar singari litotaga bevosita aloqador bo‘lmasa-da, ular litotik konstruksiyalar tarkibida leksik ma’noning shakllanishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aynan affikslar – so‘zning grammatik yoki leksik ma’nosini o‘zgartiruvchi qo‘shimcha morfemalardir. Ular ba’zan semantik kuchsizlantirish, ya’ni ma’noni yumshatish yoki pasaytirish vazifasini bajaradi. Litota esa ritorik-stilistik hodisa bo‘lib, odatda biror fikrni inkor shakli orqali bilvosita tasdiqlashga xizmat qiladi. Masalan, “yomon emas” iborasi aslida “yaxshi” degan ma’noni yumshatilgan shaklda ifodalaydi. Masalan, ingliz tilidagi **“-ish”** qo‘shimchasi taxminiylik yoki belgining sust darajada namoyon bo‘lishini bildiradi; **“-less”** suffiksi esa muayyan belgi yoki xususiyatning yo‘qligini ifodalaydi. Shuningdek, ayrim affiksal birliklar nutqda

[10] Goodman, N.D., & Stuhlmuller, A. Knowledge and implicature: Modeling language understanding as social cognition. Topics in Cognitive Science, 5(1), 2013. – P. 173-184.

ma’noning yumshatilishi, pasaytirilishi yoki kamroq keskin ifodalanishiga xizmat qilishi mumkin.

Litota – stilistik figura bo‘lib, unda fikr bevosita kuchaytirib emas, balki inkor yoki yumshatilgan ifoda orqali ta’sirchan tarzda bayon qilinadi. Ingliz tilida litotes so‘zi ot turkumiga mansub bo‘lib, uning birlik va ko‘plik shakllari talaffuz hamda yozilish jihatidan deyarli farqlanmaydi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “*Jahon tilshunosligida litotaning milliy lisoniy aspektlari*” tadqiqiga bag‘ishlangan. Kichraytirish (litota) deganda mubolag‘aning aksi tushuniladi. Lekin mohiyati, e’tibori bilan ular qarama-qarshi hodisalar emas, har ikkisi ham voqelikni haddan tashqari kuchaytirib tasvirlashga xizmat qiladi, faqat ularning ifodalanish usulida farq bor: giperbolada voqelik to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bevosita bo‘rttirib ko‘rsatilsa, litotada biror voqelikni kichraytirish vositasida beriladi: - *Tilimni qichitma, jo‘jaxo‘roz! Aytmadimmi, kuzda qiyqillab stolning tagiga kirib ketasan, deb... Eh-e, sening xo‘roz bo‘lishingga hali o‘n to‘rt prosent bor*[11].

Hozirgi bosqichda turli stilistik vositalar ham lingvistik, ham ekstralingvistik omillarni hisobga olgan holda yangi talqinni oladi. Asrlar davomida lingvistik nuqtai nazardan faoliyat yuritgan maktablar vakillarining o‘rganish obyekti bo‘lib kelgan litotani izohlashning qiyinligi nafaqat qo‘sh inkorning murakkab sintaktik qurilishini dekodlashda, balki keng kontekstni hisobga olish zaruratidadir. Shuningdek, litotada ifodalangan yangi konseptual maydonni yaratish uchun kognitiv toraytirish mexanizmidan foydalanish muhimdir. Litota stilistik qurilmasining bunday murakkab tabiati uning pragmatik salohiyatini sezilarli darajada oshiradi va uni qo‘llash doirasini kengaytiradi, litota konstruktsiyalari so‘zlashuv nutqi uchun ham, rasmiy siyosiy nutqlar uchun ham xarakterlidir[12].

Litota termini o‘zbek mumtoz adabiyotda tafrit san’ati deb yuritiladi. Masalan: *Ul sanamkim suv yaqosinda paridek o‘lturur, G‘oyati nozuklugidin suv bila yutsa bo‘iur*. (Atoiy)[13]

Litotaning ritorik uslub ekanligi semantika, pragmatika va kognitiv tilshunoslik sohasidagi ko‘plab olimlar tomonidan izohlab o‘tilgan. Jumladan, H.Lausberg[14] litota konstruktsiyasi kuchli ijobiy ma’no ifoda etishini mumkinligini ta'kidlaydi. D.Bolinger[15] esa litotani ikki marta inkorni ifodalagan uslub sifatida hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobiy ifodadan biroz zaifroq ekanligini taxmin qiladi. Ingliz tilida litota o‘z-o‘zidan ma’noni kuchaytirmaydi, lekin leksik kuchaytirgich mavjud bo‘lmaganda ma’noviy kuchayishiga ta’sir qiladi, bu ta’sir kontekst tomonidan nuanslangan kuchayish eshigini ochishdir. Salbiy ma’noni inkor etish barcha ijobiy diapazonni qaysi darajada mos bo‘lishidan qat’iy nazar ochiq qoldiradi.

Litota aslida e’tiborni ushbu gradientga qaratadi - tinglovchiga faktlar qay darajada ishora qilishini ko‘rib chiqishni taklif etiladi, masalan, ijobiy ma’nodagi

---

[11] A.Qahhor. Tanlangan asarlar. 1-tom. – B. 33.
[12] Frank, M., & Goodman, N. Predicting pragmatic reasoning in language games. Science. – 2012. – Pp. 336, 998.
[13] Sultonsaidova S. O‘.Sharipova O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent, 2009. – B. 72.
[14] Mohammed Nihad Ahmed. The Semantic View of Translating Litotes from English into Arabic. https://www.researchgate.net/publication/334696296.
[15] Bolinger D, Degree words, Walter de Gruyter publisher, ISBN 3110877783. – P. 115.

bayonot bo‘lishi ham mumkin. Litota tipologiyasining inkor tipologiyasi bilan o‘ziga xos aloqasi bor. Demak, bu konstruksiyalarning noaniqligi haqidagi vajidan uni mantiq, jumboqlarni o‘rganishga kiritilishi mumkin[16].

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillarida litota konseptual semantikasini ifodalovchi til birliklarining leksik etimologik, semantik xususiyatlari”** deb nomlanadi. Ikkinchi bobining “*Litota hodisasining ingliz va o‘zbek tillari leksik qatlamida lisoniy birlik sifatida voqelanishi*” nomli birinchi faslida garb va o‘zbek tilshunoslarining litotaga bo‘lgan qarashlari keltirilgan. R.J.Herrman[17]ning “Litota: Qadimgi Yunonistonda ritorik tropning madaniy tarixi” nomli asarida litota stilistik vositasining tarixiy va madaniy ahamiyati va uning adabiyotda, kundalik hayotdagi ishlatilishi xususida so‘z borgan. Diskurs tahlilda litotaning o‘rni va milliy xususiyatlarini tadqiq qilgan. U litotaning milliy qarashlar, normalar va qadriyatlar ta’siri hamda muloqot doirasidagi tarixiy va milliy kontekstlarda ishlatilishini tahlil etgan.

Y.M.Skrebnev[18] esa litota mustaqil tropni emas, balki meyozisning maxsus shaklini bildirishini va qarama-qarshi fikrni inkor etib, ma’lum bir fikrni aks ettirishini qayd etadi. Natijada, biz ijobiy qiymatni tashkil etuvchi ikki tomonlama inkorga ega bo‘lamiz, ammo bu uning yordamisiz kamroq intensivlikka ega bo‘ladi.

Zamonaviy ingliz tilshunosi D.Kristal lug‘atida litotani nutqning figurasi sifatida tasvirlaydi, unda biror narsa kamaytiriladi (yaxshi emas, yomon emas). E.V.Klyuev[19]ning ta’kidlashicha, litota giperbolaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshi bo‘lgan va an’anaviy ravishda “past kiritish” sifatida ta'riflangan tropdir - nutq an’analariga ongsiz ravishda rioya qilgan holda “katta qiymat” “kichikroq” bilan almashtiriladigan holat mavjud (*Bir daqiqaga qarang!*). Yoki ongli ravishda, ya’ni ma’lum bir majoziy maqsad bilan ifodalanadi.

Ko‘chimlar deyilganda, adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarning umuman ko‘chma ma’noda ishlatilishi nazarda tutiladi. So‘z ma’nosining ko‘chish jarayonlari turli ko‘rinishlarda voqe bo‘ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o‘zbek tilshunosligida ancha batafsil o‘rganilgan. Ko‘chimlar deyarli ko‘plab adabiyotlarda «troplar» atamasi ostida o‘rganilgan. Jumladan, “Badiiy tekstning lingvistik tahlili” asarida ko‘chimlar quyidagicha tasnif qilingan[20]:

1. So‘z ma’nosining miqdoriy ko‘chishiga asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozis.

2. So‘z ma’nosining sifatiy ko‘chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; d) ironiya.

---

[16] Тахтарова, С.С. Категория коммуникативного смягчения: когнитивно-дискурсивный и этнокультурный аспекты: Автореф. дисс. ...д-ра филол.наук. – Волгоград, 2010. – С. 40.

[17] R.J.Hermann. Litotes: A Cultural History of a Rhetorical Trope in Ancient Greece. Transaction Publishers, 2006.- P. 126.

[18] Скребнев Ю.М. Основы стилистики английского языка. – М: Наука. 1975. – С. 246.

[19] Klyuev E.V. Rhetoric. Invention. Disposition. Elocution. – M., 2001. – P. 190.

[20] Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – В. 34.

Qolgan tasviriy vositalar mazkur ko‘chimlarning ko‘rinishi sifatida beriladi: simvol, jonlantirish, epitet, apastrofa – metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet – metonimiyaning; antifraza, sarkazm – ironiyaning; litota – meyozisning ko‘rinishlaridir.

A.Ziyaev aytganidek, intensivlik ekspressivlik miqdorining o‘lchami, emotsionallikning darajasini ko‘rsatish, belgilash uchun xizmat qiladi, ammo u emotsionallik va ekspressivlikning bir qismi bo‘lmay, balki ular tomonga undovchi lingvistik omildir. Agar til birliklarining semalari tarkibida emosema bo‘lsa, mazkur til birliklarining ekspressivligi emotsional bo‘yoqqa ega bo‘ladi. Shuning uchun turli tillar lug‘at tarkibida, jumladan, ingliz va o‘zbek tillarida ham emotsional-ekspressiv leksik qatlam mavjud[21].

Yondosh stilistik vositasi sanaladigan meyozisning stilistik fazilatlari leksik vositalar yordamida, ularning semantikasi bilan ifodalanadi - bu uslubning o‘ziga xos xususiyati u muallif tomonidan leksik birlikni tanlash bo‘lib, uning semantikasida tasvirlangan sifatlarni ataylab kamaytirilishini aks ettiruvchi element mavjud. Litotaning stilistik fazilatlari ataylab kamaytirilishni emas, balki salbiy sifatlarning mavjudligini ko‘rsatadi, ularning darajasida ahamiyatsiz - ikki tomonlama inkordan foydalanish natijasida hosil bo‘lgan semantik ma’noni ifodalaydi. Litota – bu ma’noning bevosita emas, balki inkor va semantik pasaytirish orqali ifodalanishidir. U giperbolaga qarama-qarshi turadi: giperbola belgini haddan tashqari kuchaytirsa, litota uni ataylab yumshatadi yoki kamaytirib ko‘rsatadi. Masalan, “*Biz kambag‘al emasmiz*” iborasi oddiy inkor gap bo‘lish bilan birga, kontekstda “*bizning moddiy ahvolimiz yaxshi*” degan yashirin ijobiy ma’noni beradi.[22].

Ingliz tili ritorikasida litotaning asosiy maqsadi o‘z so‘zini qasddan yashirishdir. Fikrlar kuchliroq bo‘lishi uchun boshqacha gapirish, ifoda - litota tinglovchiga odatdagidan ko‘ra kuchliroq ta’sir qiladi, tasdiqlovchi shakldagi bayonot hisoblanadi. Shuni hisobga olish kerakki, litota tomonidan yuborilgan ma’lumotlarning chuqurligi darajasi asosan uni qabul qiluvchining shaxsiyatiga bog‘liq.

Litota oddiy inkor emas, balki tasdiqni anglatuvchi inkor, ya’ni stilistik qurilma bo‘lib, unda ikkita ma’no bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri (salbiy) va majoziy (tasdiq). Shuni ta’kidlash kerakki, litotaning stilistik ta’siri asosan intonatsiyaga bog‘liq. Ingliz tilidagi **no** va **not** inkor vositalari tegishli antonim bilan bog‘lanish uchun oddiy inkor gaplarga qaraganda ko‘proq urg‘u bilan talaffuz qilinadi. Ikki inkor ishtirok etgan gapda biri oddiy inkor (“*It is not bad*” dan farqli o‘laroq, “*It is not bad*”), ikkinchisi obyektning ijobiy sifatini tasdiqlaydi (*It is not bad = It is good*) - intonatsiya naqshlari har xil bo‘ladi. Quyidagi misollarda inkor faqat berilgan sifatning yo‘qligini bildirmasligini, aksincha, qarama-qarshi sifatning mavjudligini ko‘rsatishini kontekstning o‘zi aniq ko‘rsatishga yordam beradi: *My mistress’ eyes are nothing*

---

[21] Зияев А.И. Инглиз тилида сўз маъноларини кучайтиришнинг лингвокогнитив аспекти: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 24-28.

[22] Azimova M.R. The characteristics of meiosis and litotes in English and Uzbek languages. Eurasion journal of social sciences philosophy and culture. Volume 5, issue 12, December 2025. – P. 157-161.

like the sun. (Shakespeare); *He was no gentle lamb, and the part of second fiddle would never do for the high-pitched dominance of his nature.* (J. London).

Ingliz tilida litotaning varianti ikkita inkorga ega bo‘lgan konstruktsiyadir: *not unlike, not unpromising, not displeased* va h.k. Bunda mantiq va matematik printsipga ko‘ra “minus bilan minus plyus bo‘ladi”. Misol uchun, *Soames, with his lips and his squared chin was not unlike a bull dog* (Galsworthy).

Ushbu jumlada litota “biror narsaga o‘xshash” deb talqin qilinishi mumkin. Bunday konstruktsiyalar so‘zlovchining ishonchsizligini, qandaydir kamaytirilishini yoki kamaytirilishini anglatadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “*Litota” konseptual semantikasini ifodalovchi til birliklarining etimologik jihatlari*” deb nomlangan.

Tadqiqotchi J.Chetvertakova[23]ning fikriga ko‘ra, til milliy xarakterning ifoda shaklidir. Til milliy madaniyat imkoniyatlari va unda mavjud bo‘lgan har qanday xususiyatni ko‘rsatib beradi. Albatta, bu jarayonda har qanday til birinchi navbatda, o‘z leksik sathiga murojaat qiladi. Parema, frazema kabi birliklarda esa milliy xarakter o‘z ifodasini topadi. Har bir xalq o‘z dunyoqarashi va o‘zi chizgan (yoki u yashaydigan va ko‘rgan) olamning lisoniy manzarasiga asoslanib, atrofdagi hodisalarga munosabat bildiradi. Bu munosabat esa turli ifoda usullarida namoyon bo‘ladi.

Poetik figuralarni lingvistik jihatdan tadqiq qilish orqali badiiy matnni uzoq esda qolarli bo‘lishida badiiy tasvir vositalari, ya’ni troplar asosiy vazifani bajaradi. So‘zning ma’nosini ko‘chirishda narsa va hodisalar o‘rtasida ichki yoki tashqi, mazmun o‘xshashligi yoki aloqadorligi saqlanib qolgan bo‘lishi kerak. Bu jihatidan stilistik troplarni adabiyotshunoslikdagi tashbehga yaqin tutish mumkin, lekin ko‘chimlar tashbeh (o‘xshatish) emas, ular o‘rtasida katta farq mavjud. Ko‘chimda so‘zning ikkinchi qismidagi ma’no birinchi qismga ko‘chiriladi va tasvirlanayotgan voqea-hodisalarni tinglovchiga ta’sirli yetib borishiga xizmat qiladi. Stilistik troplar badiiy matnga qo‘shimcha ravishda ekspressivlik beradi[24].

Ingliz tilida majoziy kuchayish konnotativ kommunikativ funksiyani bajaradigan ikki tomonlama inkor (= litotes) bilan ifodalanishi mumkin. Litotik ifodani shakllantirishda turli grammatik vositalar ishtirok etadi. Xususan, ingliz tilida inkor yuklamasi *not*, inkor olmoshlari hamda ergash gapli sintaktik konstruktsiyalar litota hosil qilishda muhim lingvistik birliklar sifatida qo‘llanadi. Bu vositalar yordamida fikr bevosita emas, balki inkor orqali bilvosita tasdiqlash shaklida ifodalanadi. Masalan, *not bad* – “yomon emas” iborasi aslida “yaxshi” degan ijobiy ma’noni yumshatilgan tarzda bildiradi. Xuddi shuningdek, inkor olmoshlari orqali ham ma’no pasaytirilgan yoki ehtiyotkor shaklda ifodalanadi. Ergash gaplar esa litotik ma’noni kengroq kontekstda ochib berib, nutqning pragmatik ta’sirchanligini kuchaytiradi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, bu holat sintaktik-stilistik hodisa sifatida baholanadi. Chunki litota faqat alohida so‘z orqali emas, balki butun gap qurilishi, inkor shakllari va kontekstual ma’no orqali yuzaga chiqadi. Demak, *not* yuklamasi, inkor olmoshlari va ergash gaplar litotaning grammatik hamda semantik mexanizmlarini shakllantiruvchi asosiy vositalar hisoblanadi.

---

[23] Четвертакова Ж.В. Язык как форма выражения национального характера. – Тува, 2015. – С. 139-145.

[24] Zamonaviy o‘zbek tili jurnali 2023/02 (1) 86. – B. 148.

Litotaning vazifasi tinglovchining e'tiborini muayyan vaziyatga qaratishdan iborat bo'lib, u stilistik past baho bilan ijro etiladi. Bu asosan to'g'ridan-to'g'ri javob berish mos bo'lmagan yoki mumkin bo'lmagan holatlarda qo'llaniladigan yashirin so'rov yoki rad etishdir. Shuni hisobga olish kerakki, ingliz tilidagi gapda bir nechta inkorlar, shuningdek, bir ibora ichidagi inkor komponentlarining yonma-yon kelishi uning yakuniy ma'nosini tubdan o'zgartiradi.

Masalan: *Women are no devils. – Women are angels. The woman is not a person. - The woman is a human creature. "No devils" is not equal to "angels" although* ikki ifoda modeli sinonimdir. Xuddi shu ikkinchi juftlik haqida "odam emas" va "inson mavjudot" deb aytish mumkin. Ikkala holatda ham salbiy qurilish tasdiqlovchilarga qaraganda zaifroq. Shuningdek, negativ semantikaga asoslangan konstruksiyalar yuqori darajadagi ekspressivlik xususiyatiga ega ekanini qayd etish zarur. Ikkinchi holatda esa inkor elementi denotativ ma'nodan tashqari qo'shimcha konnotativ yuklama hosil qiladi. Natijada, mazkur konstruksiyalar lingvostilistik vosita sifatida baholanadi[25].

Ingliz maqol va matallarida metafora, kinoya, epitet, o'xshatish, giperbola, takror, gradatsiya va litota kabi stilistik vositalar keng qo'llanadi. Bu vositalar ayol obrazini yanada ta'sirchan, obrazli va rang-barang tasvirlashga xizmat qiladi. Biroq ingliz maqollarida ayol obrazi ko'pincha salbiy konnotatsiya bilan ifodalanadi. Ayrim maqollar ayol shaxsini kamsituvchi yoki tanqidiy mazmunda tasvirlaydi. Shu bilan birga, ba'zi hollarda bu salbiy baho ironiya, litota yoki metafora orqali yumshatiladi yoki ko'chma ma'no kasb etadi.

Meyozis (meyoz, kamaytma) obyekt sifatining pastligini bildiradi. Bunday zahira va xushmuomalalik inglizlarga xosdir. Masalan. "tashqarida shamol esadi" jumlasi o'rniga "shamol ancha kuchli" deb aytish mumkin.

Litota (pastlash; litotes, understatement) - ijobiy ma'noda salbiy konstruktsiyalarning o'ziga xos ishlatilishiga asoslangan qurilma, shuning uchun sifat kam baholangandek tuyuladi, lekin aslida u juda ijobiy yoki kuchaygan narsa sifatida ko'rsatiladi: *Yomon emas* (juda yaxshi); *u qo'rqoq emas* (juda jasur); *bu oson ish emas edi* (juda qiyin); *Bu ta'msiz qilingan* (juda yaxshi ta'mda).

Ikkinchi bobning uchunchi fasli "*Litota" konseptual semantikasini ifodalovchi til birliklarining leksik-semantik qatlami*" deb nomlanadi.

Leksik semantik evolyutsiyada semantik maydon, valentlik, milliy xususiyatlar masalasi ham alohida o'rin tutishi tadqiqotlarda ta'kidlangan. Semantikaga doir izlanishlarning aksariyati til lug'aviy birliklarining mazmuniy aloqadorligiga asoslangan semantik maydon tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlardir. So'zni semantik maydonlarga ajratib tadqiq etish 1930-yillarda nemis tilshunosi Y.Trir[26] tomonidan ilgari surilgan edi. Bunda u dastlabki davrda juda tor doirada: qarindosh-urug'chilik, jonivor nomlari, harbiy atamalar va ba'zi bir ixtisosga doir terminlar semantik maydonini tahlil qilish uchun qo'llangan edi, bunda ular ayrim terminlarni differensiatsiya qilish uchun foydalanganlar.

---

[25] Хошимов Ғ.М., Ф.Абдурахимова. Турли тизимли тилларда антигиперболанинг лингвостилистик мақоми // Kognitiv tilshunoslik va filologiyaning dolzarb masalalari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Farg'ona. 2017. – Б. 92-95.

[26] Алефиренко, Н.Ф. Поэтическая энергия слова. Синергетика, языка сознания и культуры. - М: Academia, 2002. – 394 с.

Semantika til birliklari ma’nosi, mazmuni, taraqqiyotiga doir masalalarni tahlil qiluvchi tilshunoslik bo‘limidir. Semantika, asosan, lug‘aviy birliklar ma’no tahliliga oid deb qaralgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda mazkur sohaning tahlil doirasi yanada kengaydi. Bugungi kunda semantika til birliklarining belgi-xususiyatlaridan tortib grammatik shakllar orqali ifodalagan ma’nosigacha bo‘lgan tahlillarni o‘z ichiga oladi.

Z.Popova va V.M.Toporova[27] semantika haqida fikr yuritar ekan, uning boshqa fan sohalari kabi, o‘z o‘rganish predmetiga egaligini ta’kidlaydi. Biroq, bu predmetni aniqlash oson emasligini qayd etadi. Garchi tilshunoslarning aksariyati semantika lingvistik ifodalarning ma’nosini o‘rganadi, deb hisoblasa-da, ma’no nimalarni anglatishi kerakligi haqidagi savolga umumiy qabul qilingan javob yo‘q. Predmetni aniqlashtirishdagi har-xilliklar tufayli semantika va boshqa lingvistik fanlar, xususan semantika va pragmatika o‘rtasidagi chegaralarni o‘rnatishda ham har xillik yuzaga keladi. Semantika – til birliklarining mazmunini va ushbu birliklardan qurilgan nutqiy hosilalarni o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limidir.

O‘zbek tilida litotani ifoda etish uchun turli til vositalaridan foydalaniladi. Bu vositalarning tanlanishi gapning mazmuni, uslubi va vazifasiga bog‘liq. Litota har qanday tilda bo‘lgani kabi o‘zbek tilida ham muloqotda muhim rol o‘ynaydi. Litota adabiyotda badiiy obrazlar yaratish, muallifning fikrlarini yumshatish va kuchaytirish uchun keng qo‘llaniladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida litotaning grammatik xususiyatlari bir-biriga o‘xshashliklar va farqlarga ega. Ikkala til ham inkor gaplar, kamaytiruvchi modifikatorlar va taqqosli tuzilmalardan foydalanadi. Farqi shundaki, ingliz tilida inkor so‘zlari fe’ldan oldin, o‘zbek tilida esa gap oxirida keladi. Shuningdek, ingliz tilida litota ko‘proq idiomatik ifodalar bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek tilida bu ifodalar sodda va to‘g‘ridan-to‘g‘riroq bo‘ladi.

O‘zbek tilida litotani ifodalovchi til vositalari:

Litota – bu badiiy ifoda vositasi bo‘lib, unda biror bir holat, sifat yoki harakat aslidagidan kamroq baholanadi. O‘zbek tilida litotani ifoda etish uchun quyidagi turli til vositalaridan foydalaniladi.

1. Zararsizlantiruvchi qo‘shimchalar: Bu qo‘shimchalar so‘z ma’nosini yumshatib, uning salbiy ta’sirini kamaytiradi. Masalan, *-roq*, *-gina*, *-cha* qo‘shimchalari: *Men biroz charchadim* (juda charchadim emas); *Bu ish uncha murakkab emas* (juda murakkab emas).

2. Infinitiv bilan tuzilgan gaplar: Infinitiv yordamida amalning bajarilishiga e’tibor qaratilib, uning natijasiga e’tibor kamroq beriladi: *U kitob o‘qishga o‘tirdi*. (kitob o‘qishni boshladi, lekin tugatdimi-yo‘qmi aytilmaydi).

3. Bog‘lovchilar: “*Biroz*”, “*uncha*”, “*kam*”, “*sal*” kabilar yordamida miqdorni kamaytirish ifoda etiladi: *U biroz kech qoldi* (juda kech qoldi emas).

4. Sinonimlar: Ma’nosi yaqin, lekin emotsional yuki kamroq bo‘lgan so‘zlarni tanlash: *Uning ko‘ngli sal buzildi* (juda xafa bo‘ldi emas).

5. Evfemizmlar: Noxush holatlarni yumshatib ifoda etish uchun ishlatiladigan so‘zlar yoki iboralar: *U dunyodan o‘tdi* (o‘ldi).

---

[27] Попова З.Д., Топорова В.М. Линии и силуеты в семантическом пространстве языка//Семантика языковых единиц: доклады 5-й международной конференции. – М.; 1996 Т.1 – С. 93-95.

6. Idiomalar: Ma’nosi bir butun bo‘lgan barqaror iboralar: *Unchalik aqlli emas* (juda aqlli emas).

G‘arb madaniyatida litota, ayniqsa, britaniyalik va amerikalik anglosakson madaniyatida, ironiya va yumorni ifoda etish uchun keng qo‘llaniladi. Sharq madaniyatida litota kamtarlik, tavoze va boshqalarga nisbatan hurmat belgisi sifatida keng tarqalgan. Skandinaviya madaniyatida litota odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash va kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun qo‘llaniladi. Litota – bu faqat tilga oid ifoda vositasi emas, balki madaniy koddir. Uning qo‘llanilishi orqali biz ma’lum bir jamiyatning qiymatlari, normalari va dunyoqarashi haqida ko‘p narsa bilib olishimiz mumkin:

O‘zbek tilida: *Tog‘ni ursa talqon qiladigan yigitning sichqondan qo‘rqishini qara! Nima? Oxirgi nafasingni olyapsanmi? Joning chiqib ketyaptimi?*

Ingliz tilida: *Look at the man. He can face the devil, but he is afraid of a mouse. What? Are you taking your last breath?*

Uchinchi bob “**Litota konseptual semantikasini ifodalovchi til birliklarining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari**” deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi fasli “*Qiyoslanayotgan tillarda litota stilistik vositasining konseptual jihatlari*” ni ochib beradi**.** Bu faslda litotalarning lingvokognitiv xususiyatlari uning ritorik vosita sifatida murakkabligini ta’kidlaydi. Strukturaviy jihatdan, litota inkor etish va past baho berishga tayanadi. Kognitiv jihatdan u tinglovchilar/o‘quvchilarni inkor qilingan ma’nolarni qayta talqin qilish va aqliy modellarni yaratishga jalb qiladi. Madaniy jihatdan esa u noziklik, istehzo va vazminlik qadriyatlarini aks ettiradi. Pragmatik tomondan u bayonotlarni yumshatish, hissiy chuqurlikni yaratish va keskinlikni oshirishga xizmat qiladi.

Litota ko‘pincha boshqa ritorik vositalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, yanada boy va nozik ifodalarni yaratadi. Litotaning tildagi metafora, ironiya, antiteza, oksimoron, evfemizm va modal so‘zlar bilan qanday qo‘shilishini va har bir kombinatsiya litotalarning ritorik ta’sirini kuchaytiradi, ma’no, noziklik yoki urg‘u qatlamlarini boyitadi.

“Konsept” atamasi birinchi marta rus tilshunosligida S.A.Askoldov-Alekseyev[28] tomonidan qo‘llanilgan. Bu yo‘nalishga xos tadqiqotlar antroposentrizm tamoyiliga asoslangan bo‘lib, bunday izlanishlarning diqqat markazida inson omili turadi. Shu bilan bir qatorda kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyasi bo‘lgan “konsept” mental birlik sifatida, dunyo bilimlarini egallashning birdan bir vositasi hisoblanadi. Turli konseptlar yoki konseptual semantikalar orasida kognitiv stilistik konseptlardan biri bo‘lgan “giperbola konsepti” universal tabiatga ega bo‘lgan konseptlar sirasiga kiradi va ular tilda so‘zlovchi tomonidan ataylab, jarayonga ko‘ra tez-tez bo‘rttirilmasdan iloji yo‘q. Bu esa ushbu konseptual semantikaning kommunikativ nuqtayi nazaridan ham funksional ahamiyatga ega semantik ma’no ekanligidan dalolat beradi. Aynan litota stilistik vositasini konseptual jihatlarini izohlash va bayon etish uchun quyidagi maydoniy tahlildan foydalanishimiz mumkin.

[28] Аскольдов С.А. Концепт и слова // Русская словесность “От теории словесности к структуре текста”. – М., 1997. – С. 267-279.

Yuqoridagi dunyo va o‘zbek tilshunos olimlari tomonidan berilgan tasniflarga tayangan holda biz ham litota konsepti lisoniy ifoda vositalari sifatida quyidagilarni kiritdik:



1-rasm. Litota konseptining lisoniy ifoda vositalari tasnifi

Lingvokognitiv, funksional-semantik tahlillarga tayangan holda shuni ma’lum qilamizki, lilota konseptini ifodalovchi til birliklarining nominativ maydonini dominanta, yadro va periferiya qismlarga ajratdik hamda maydon dominantasi inkor yuklamasi + salbiy ma’noga ega bo‘lgan sifat, fe’l va tasdiq so‘zdan iborat bo‘lib, tub so‘zlar, yuklamalar va boglovchilar hamda sinonimik tanlov uning yadrosini frazeologik birliklar, gumon va ehtimol vositalari, evfemistik birliklar va paremiya va maqollar tashkil etdi.



2-rasm. Litotaning struktur-semantik modeli

Uchinchi bobning ikkinchi fasli "*Lingvomadaniy qatlamda litotaning funksional –semantik, kommunikativ-sintaktik xususiyatlari*" deb nomlanadi. Litota shunchaki lingvistik vosita emas, balki muhim kognitiv va madaniy o'lchovlarga ega. Litota ingliz va o'zbek tillarida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u har bir tilning semantik, pragmatik va kognitiv jihatlarini aks ettiradi. Ingliz tilida litota tez-tez kinoya va yumor yaratish uchun ishlatiladi. O'zbek tilida esa diplomatiya va chinakamlikni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Litotaning universal tarzda namoyon bo'lishi uning butun dunyo tillarida muhim stilistik vosita ekanligini tasdiqlaydi. Litotada ijobiy xususiyatning tasdiqlanish darajasi inkor qilingan so'zning ma'nosiga va inkorning tuzilishiga bog'liq. Quyidagi ingliz tilidagi litotani ko'rib chiqamiz: *Sissy Jupe had not an easy time of it, between Mr. M'Choakum- child and Mrs. Gradgrind, and was not without strong impulses, in the first months of her probation, to run away.* (Dickens)

No a little, not not like, notless birikmalari ma'lum darajada frazeologik birikmalarga aylanadi, ya'ni sinonimik ifoda vositalariga aylanadi. Biroq, oson bo'lmagan vaqt va qiyin vaqt o'rtasida yoki oz emas va juda ko'p o'rtasida teng belgi qo'yish mumkin emas. Litota nafaqat belgini pasaytiradi, balki hissiy jihatdan bayonotni boshqacha tarzda bo'yaydi.

Ingliz tilida majoziy kuchayish konativ kommunikativ funksiyani bajaradigan ikki tomonlama inkor (= litota) bilan ifodalanishi mumkin. Litotalarning vazifasi tinglovchining e'tiborini muayyan vaziyatga qaratishdan iborat bo'lib, u stilistik past baho bilan ijro etiladi. Bu asosan to'g'ridan-to'g'ri javob berish mos bo'lmagan yoki mumkin bo'lmagan holatlarda qo'llaniladigan yashirin so'rov yoki rad etishdir. Shuni hisobga olish kerakki, ingliz tilidagi gapda bir nechta inkor vositalar, shuningdek, bir turg'un birikma ichidagi inkor komponentlarining yonma-yon kelishi uning yakuniy ma'nosini tubdan o'zgartiradi.

Kishilarning fikrlaridagi ayrim ma'lumotni tanqidiy qabul qilinmaydigan affektiv holatga qaytishga majburlash va undan kerakli manbani siqib chiqarishga urinish sodir bo'ladi. Bu ma'noda kichraytiruvchi qo'shimchalar ancha kuchli psixologik quroldir. Keling, ingliz tilidagi litotalarga e'tibor qaytaylik:

Oddiy litota - bu aniq ikki karra inkorga ega bo'lgan jumlalar (grammatik darajasida): *I can't get no satisfaction* (The Rolling Stones).

Litota ko'pincha ikki darajali inkor mexanizmi asosida shakllanadi: birinchisi – grammatik darajada ifodalangan eksplisit inkor, ikkinchisi esa leksema yoki semema tarkibida yashirin mavjud bo'lgan implisit inkor semantikasidir. Bunday holda, ma'noni tushunish va to'g'ri tarjima qilish qiyin bo'lishi mumkin.

Lingvomadaniyatshunoslik XX asr oxiri va XXI asr boshlarida, etnolingvistika, psixolingvistika va kognitiv kabi yangi sohalar bilan birqatorda paydo bo'lgan. Lingvistikani bu yangi sohasining rivojlanishi V.N.Telia, V.V.Vorobev, V.G.Kostomarov va V.A.Maslova kabi olimlarning bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqdir. Bunda hozirgi kundagi lingvokulturologik tadqiqotning mavjud tendensiyalarini tasvirlangan. Lingvokulturologiyada (kognitiv tilshunoslikda ham, umuman, antropologik paradigmada) "olamning lisoniy manzarasi", "lisoniy shaxs", "konsept" kabi bir qator asosiy tushunchalar mavjud[29].

[29] Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. –М.: Флинта, Наука, 2010. – С. 44.

Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning madaniy tafakkurini aks ettiruvchi vositadir. Til birliklarining har biri muayyan semantik yuklama bilan birga, ma’lum madaniy kodni ham o‘z ichiga oladi. Bunda ifoda vositalari – metafora, metonimiya, litota, giperbola kabilar muhim rol o‘ynaydi.[30]

Semantik nuqtayi nazardan litota stilistik vositasi quyidagi asosiy jihatlar bilan tavsiflanadi: Yuqori darajadagi bahoni kamaytirish: ma’no kuchsizlantiriladi, lekin asl fikr o‘z ifodasini topadi. Uning ko‘p ma’nolilik xususiyati jihatidan ishlatilishida kontekst asosiy rol o‘ynaydi, chunki u bir vaqtning o‘zida ijobiy va salbiy ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Shuningdek, madaniyatga xos semantik yuklama sifatida yani har bir til va madaniyatda litota o‘ziga xos konnotatsiyalarga ega bo‘lishi mumkin. Litota orqali aytilgan fikrlar ko‘pincha madaniy me’yorlar, insoniy muomala, va indirekt kommunikatsiya tamoyillariga mos keladi. Bu kabi hollarda litotaning madaniy kodga bog‘liqligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

A.A.Leontev[31] ning ta’rifiga ko‘ra, lingvokulturologiyani “dunyodagi milliy tasvirni o‘rganish bilan bevosita bog‘liq, tilni tushunish, aqliy zahmatli kompleksning xususiyatlari” bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan til va nutqda madaniyatning namoyish va namoyishini o‘rganadigan intizom" sifatida tanitiladi.

Bu borada E.I.Zinovievaning va E.Yurkovaning ta’rifi quyidagicha[32]: “Lingvokulturologiyani turli tillardagi tillar bo‘linmalari, nutqiy faoliyat, nutq xulq atvori va nutqni o‘rganish orqali muayyan tilning spikerlari olami haqidagi bilimlarni turli xil usullar bilan tanishtirishning filologik fani sifatida tan olishimiz mumkin”. Bu esa, ushbu obyektlarning tahlil qilingan birliklar, uning soyalari, konsentatsiyalari va assotsiatsiyalarning qiymatini tushuntiradilar. Tilshunoslik va hududiy adqiqotlar 20-asrning oxiridan boshlab tilshunoslik, tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan shug‘ullanuvchi rus olimlari o‘rganish obyektini tavsiflovchi yangi atamalar bilan faol tanishganlar.

Turli kontekstlarda litotani tushunish - kundalik nutq, adabiyot yoki rasmiy nutq - aloqa vositasi sifatida uning ko‘p qirrali va chuqurligini ochib beradi. Uning nozik ma'nolarni bilvosita etkazish qobiliyati uni lingvistik va kognitiv nuqtayi nazardan kuchli qurilmaga aylantiradi. Litota ko‘pincha boshqa ritorik vositalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, yanada boy va nozik ifodalarni yaratadi. Litotaning tildagi metafora, ironiya, antiteza, oksimoron, evfemizm va modal so‘zlar bilan qanday qo‘shilishini va har bir kombinatsiya litotaning ritorik ta'sirini kuchaytiradi, ma'no, noziklik yoki urg‘u qatlamlarini boyitadi.

XULOSA

1. Ingliz va o‘zbek tillari stilistikasidagi litota stilistik hodisasining tarixiy-genetik ildizlari (etimologiyasi), leksik qatlamdagi hamda tarixiy taraqqiyot bosqichidagi ma’noviy xususiyatlari orqali uning semantikasida uchraydigan o‘ziga xos o‘zgarishlar asoslab berildi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi litota stilistik uslubining og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishiga muvofiq faollik darajasi hamda miqdoriy ko‘rsatkichlari isbotlangan;

---

[30] Ахмедова, М. Лингвомаданий ёндошув асослари. Самарқанд: СамДУ, 2020. – В. 157.

[31] Леонтьев А. А. Языковое сознание и образ мира // Язык и сознание: парадоксальная рациональность / Ин-т языкознания РАН. М., 1993. – С. 16–21.

[32] Zinovieva E.I., Alyoshin A.S. Verbalizing the Conceptual Opposition of “Us vs Them” in Proverbs: Comparative Paremias in Swedish and Russian. Science Journal of VolSU. Linguistics. 2022. – P. 166.

2. Ingliz tilida litota dastlab epik qahramonlarni tasvirlash uchun ishlatilib, keyinchalik fikrni tanqidiy va yumshatib ifodalashga yo‘nalgan. O‘zbek tilida litota avval yuksak tabaqadagilarni maqtashda qo‘llanilgan, keyinchalik xalq og‘zaki ijodida hazil-mutoyiba vositasiga aylangan. Ingliz tilida litota semantik jihatdan ko‘proq tanqidiy fikrni yumshatishga, o‘zbek tilida esa kamtarlik va andishani ifodalashga xizmat qiladi. Har ikki tilda ham litota biror narsani inkor qilish orqali uning ziddi bo‘lgan ma'noni tasdiqlaydi, lekin bu jarayon madaniy kontekstga bog‘liq

3. Ingliz va o‘zbek tillarida litota stilistik vositasining semantik, pragmatik va tarjimaviy xususiyatlari chog‘ishtirma aspektda tahlil qilingan. Litotaning har ikki tildagi funksional muqobillari, lingvistik shakllanish mexanizmlari, ularning leksik-semantik, stilistik va kognitiv-pragmatik xususiyatlari aniqlangan. Konseptual semantikaga ega lingvistik hodisa sifatida talqin etilib, ingliz va o‘zbek tillarida “litota” konseptining ifodalanishida mavjud bo‘lgan leksik-semantik, pragmatik va kognitiv tafovutlar hamda umumiyliklar ochib berilgan.

4. Litotaning konseptual semantikasi va kognitiv strukturasi inson ongida mavjud bilimlar tizimiga bog‘liq. Bu vosita orqali so‘zlovchi o‘z fikrini bilvosita tarzda, lekin samarali va ta’sirchan tarzda yetkazadi. Litota nutqda ijobiy yoki salbiy bahoni ifodalashda, shuningdek, suhbatdoshga noaniqlikni saqlab qolish yoki manoni zaifroq fikrni yetkazishda ishlatiladi. Bu vosita bilvosita munosabatlarni yaratish va muloqotda xushmuomalalikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Litota stilistik jihatdan nutqni boyitish va matnga chuqur ma’noli tabaqalarni qo‘shish imkonini beradi. U she’riyatda, adabiyotda va og‘zaki nutqda keng qo‘llaniladi. Litota – bu faqat tilga oid ifoda vositasi emas, balki madaniyat, tarix va jamiyatning dunyoqarashini aks ettiruvchi keng kontekstli kommunikativ vosita hisoblanadi. Uning o‘rganilishi orqali tillararo munosabatlarni chuqurroq tushunish, tarjimada aniqroq echimlar topish va turli madaniyatlarning xususiyatlarini solishtirish imkoniyati yaratiladi.

5. Ingliz va o‘zbek tillaridagi litota hodisasining qiyosiy tahlili uning nafaqat til birligi, balki madaniy, tarixiy va psixologik sath ekanligini ko‘rsatadi. Litota har ikki tilda ham muhim kommunikativ vazifalarni bajaradi, lekin ularning qo‘llanilish darajasi, shakllari va pragmatik funksiyalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu hodisaning chuqur o‘rganilishi nafaqat tilshunoslik nazariyasini boyitadi, balki tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va qiyosiy adabiyotshunoslik sohalarida ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Litota tushunchasini o‘rganish orqali ikki tilli hamjamiyatlar orasidagi muloqotni samaraliroq tashkil etish, tarjima sifatini oshirish va madaniy o‘zaro tushunishni rivojlantirish mumkin.

6. Litota stilistik vositasi konseptual jihatdan “kamaytirib ko‘rsatish”, “yumshatib ifodalash” va “inkor orqali tasdiqlash” kabi semantik xususiyatlarga ega. Ingliz tilida litota ko‘proq “understatement” konsepti bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zbek tilida “kamtarlik” va “andisha” tushunchalari bilan aloqador. Ingliz tilida litotaning konseptual semantikasi ko‘pincha tanqid, kinoya va sarkazmni yashirishga, o‘zbek tilida esa xushmuomalalik va hurmatni ko‘rsatishga qaratilgan. Har ikki tilda ham litotaning konseptual semantikasi kontekstual bo‘lib, nutq vaziyatiga qarab turlicha talqin qilinadi.

7. Litotaning kognitiv strukturasi inson ongidagi bilimlar tizimiga bog‘liq bo‘lib, so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi umumiy bilim bazasiga tayanadi. Kognitiv jihatdan litota konseptual integratsiya, pragmatik inferensiya va semantik inversiya kabi mexanizmlar orqali ishlab chiqariladi va tushuniladi. Ingliz tilida litotaning kognitiv asoslari “individualizmni saqlash”, o‘zbek tilida esa “jamoaviy uyg‘unlikni ta’minlash” kabi ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarga bog‘liq. Litota orqali so‘zlovchi o‘z fikrini bilvosita tarzda, lekin samarali va ta'sirchan tarzda yetkazadi, bu esa tinglovchining faol kognitiv ishtirokini talab qiladi.

8. Litota nutqda ijobiy yoki salbiy bahoni ifodalash vositasi bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri baholashdan ko‘ra, diplomatikroq va yumshoqroq vositadir. Ingliz tilida litota ko‘pincha suhbatdoshga noaniqlikni (“I wouldn't disagree”), o‘zbek tilida esa ko‘proq xushmuomalalikni (“bezovta qilmasam”) saqlab qolish uchun ishlatiladi. Litota muloqotda bilvosita munosabatlarni yaratish va suhbatdoshga erkinlik berish imkonini beradi. Ingliz tilida litota suhbatdoshlar orasida ijtimoiy masofa saqlash, o‘zbek tilida esa aksincha, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida ishlatiladi.

9. Litota lingvostilistik jihatdan nutqning ekspressiv-impressiv imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita bo‘lib, badiiy diskursda konnotativ mazmunni boyitadi, obrazlilik va emotsional ta’sirni kuchaytiradi. Ingliz adabiy diskursida ijtimoiy tanqid, yumshatilgan baho va ironik-pragmatik effekt yaratish vositasi sifatida qo‘llanadi. O‘zbek adabiy matnlarida esa u milliy-madaniy qadriyatlar, axloqiy-estetik qarashlar va etnolingvistik xususiyatlarni ifodalaydi. Notiqlik diskursida litota tanqidiy fikrni yumshoq bayon qilish, adresatga pragmatik ta’sir ko‘rsatish hamda diplomatiklik strategiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bois litota nafaqat stilistik figura, balki semantik, pragmatik va madaniy mazmunni shakllantiruvchi lingvopoetik vosita sifatida baholanadi.

10. Litota faqat til vositasi emas, balki madaniyat, tarix va jamiyatning dunyoqarashini aks ettiruvchi keng kontekstli kommunikativ vositadir. Ingliz madaniyatida litota individualizmni saqlash va shaxsiy makonni himoya qilish vositasi, o‘zbek madaniyatida esa jamoaviylik va ijtimoiy uyg‘unlikni ta'minlash vositasidir. Xalqaro diplomatiyada litota turli madaniyatlar orasidagi nizolarni yumshatish, biznes kommunikatsiyasida esa hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash vositasi sifatida qo‘llaniladi. Litota tushunchasini o‘rganish orqali ikki tilli hamjamiyatlar orasidagi muloqotni samaraliroq tashkil etish, tarjima sifatini oshirish va madaniy o‘zaro tushunishni rivojlantirish mumkin.

THE SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02
AWARDING SCIENTIFIC DEGREES AT
ANDIJAN STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

ANDIJAN STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

DJABBAROVA ZULFIYA RUSTAMOVNA

LINGUICOGNITIVE PECULIARITIES OF LANGUAGE UNITS EXPRESSING THE CONCEPTUAL SEMANTICS OF "LITOTES" IN ENGLISH AND UZBEK

10.00.13 – Comparative and contrastive linguistics

ABSTRACT
of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) in PHILOLOGICAL sciences

Andijan – 2026

The theme of dissertation of the PhD dissertation was registered under the number №B2023.1.PhD/Fil1799 at the Supreme Attestaion Commission under the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

The dissertation has been carried out at Andijan State Institute of Foreign Languages.

The abstract of the dissertation is posted in three (Uzbek, English and Russian (resume)) languages on the official website of Andijan State Institute of Foreign Languages (www.adchti.uz) and on the webside of "Ziyonet" information - educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific advisor:	**Vositov Valijon Abduvahobovich** Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Official opponents:	**Xamroyeva Shaxlo Mirdjanovna** Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
	Najmiddinov Ahmad Rahmatovich Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Leading organization:	**Fergana State University**

The dissertation defence will take place it the meeting of the Scientific Council DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 on awarding the academic degree at Andijan State Institute of Foreign Languages "_____" _____ 2026 at_____. (Address: 170100, Andijan city, Boburshoh Avenue, 5. Tel: 0(374) 223-42-76, Fax: 0(374) 223-42-76, e-mail: asifl@edu.uz).

The dissertation can be found in the Information Resource Center of the Andijan State Institute of Foreign Languages (registered under the number_____). (Address: 170100, Andijan city, Boburshoh Avenue, 5. Tel: 0(374) 223-42-76).

The abstract of the dissertation is distributed on "_____" _____ 2026.
(Protocol of the register №_____ on "_____" _____ 2026).

D.A.Rustamov
Chairman of the Scientific Council for Awarding Academic Degrees, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

A.Dj.Ataboev
Scientific Secretary of the Scientific Council for Awarding Academic Degrees, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

M.A. Abduvaliyev
Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council for Awarding Academic Degrees, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

INTRODUCTION (annotation of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

The topicality and necessity of the dissertation theme. In world linguistics, the study of the aspects of the litotes artistic figurative means belonging to different language families, finding equivalents in translation, and generalizing scientific and theoretical views on this issue have been the focus of attention of linguists. The growing need to analyze the linguistic units representing the litotes figurative means under study from the point of view of comparative linguistics, to determine their semantics, mutual translation, and cognitive properties determines the relevance of this topic. The study of the linguocognitive properties of linguistic units representing litotes in English and Uzbek is of practical importance.

Litotes is widely studied by linguists around the world as a methodological tool on the basis of such directions as linguocognitology, semasiology, linguoculturology, pragmalinguistics, and communicative discourse. Litotes, as an independent category of language, is activated through the linguistic code, relying on the cognitive system of language speakers. Thus, litotes are a part of the objective world and, as a linguistic phenomenon, reflect a particular worldview. The use of litotes in speech is manifested differently in each nation. Therefore, litotes are a complex, multifaceted phenomenon that, relying on the cognitive base of the individual, serves to form a certain cultural and linguistic picture of the world. The occurrence of litotes in speech situations creates the concept of a culture of communication and provides an individual-psychological approach to its study. The study of litotes, taking into account each approach, creates a basis for the development of theoretical views in linguistics.

In our country, improving the system of teaching foreign languages, training competitive, excellent personnel in all respects in higher educational institutions is one of the priority tasks. The tasks set include “creating the necessary conditions for the popularization of foreign language learning among the population and their perfect mastery, coordinating the introduction of internationally recognized programs and textbooks for teaching foreign languages at all stages of education.[1] In particular, in an era of developing science and innovation, it is important to know not only foreign languages, but also the culture of speakers of this language. This creates the need for a comparative analysis of languages and deeper research. Therefore, it is urgent to analyze the common and different aspects of linguistic units expressing litotes in modern English and Uzbek, identify problems and pragmatic features in their mutual translation, and develop proposals for lexicographic interpretation.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 dated October 8, 2019 “On the Strategy of Actions for the Further Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030”, Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 dated October 8, 2019 “On approval of the concept of the Strategy of Actions for the Further Development of

[1] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/oz/lists/view/5774 – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. (Murojaat sanasi: 19.06.2025).

the Republic of Uzbekistan for the Further Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-1875 dated December 10, 2012 "On measures to further improve the system of learning foreign languages", Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-2909 dated April 20, 2017 "On measures to further develop the system of higher education", Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-3775 dated June 5, 2018 "On additional measures to improve the quality of education in higher education institutions and ensure their active participation in the comprehensive reforms being implemented in the country This dissertation will serve to a certain extent in implementing the tasks set forth in the resolutions of the Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan on "On" and other regulatory legal documents related to this activity[2].

The relevance of the dissertation on the priorities of the development of science and technology of the Republic of Uzbekistan. The dissertation was carried out within the framework of the priority direction of the development of Science and technology of the Republic "social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an informed society and a Democratic state, development of an innovative economy".

The problem of development status. The study of the phenomenon of litotes in world linguistics has a centuries-old history, and a number of works on this topic have been carried out in world and Uzbek linguistics. Among the world researchers are D.J.Enright, Allan K., Burridge K., Wooden, L.Neuhaus, H.A.Rawson, Y.Yuan, A.Lyda and K. Warshal, T. Szczygłowska[3]; from Russian

[2] Enright D.J. Fair of Speech, the Use of Euphemism. – Oxford: Oxford University Press, 1986; Allan K., Burridge K. Euphemism and Dysphemism. – USA: Oxford University Press, 1991; Wouden, T. van der (1995) Litotes and downward monotonicity. Available at http://odur.let.rug. nl/vdwouden/docs/leipzig.pdf.; Neuhaus, L. (2016) On the relation of irony, understatement, and litotes. Pragmatics and Cognition 23(1), 117–149.; Rawson H.A. Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk. – Edison N.J.: Castle Books, 2002.; Yuan, Y. (2017) The argumentative litotes in The Analects. Argument & Computation 8, 253–266.; Łyda A. and K. Warchał (2011) Ethnic and Disciplinary Cultures and Understatement: Litotic Constructions in Polish and English Linguistics and Biology Research Articles. In: Arabski, J. and A. Wojtaszek (eds) Aspects of Culture in Second Language Acquisition and Foreign Language Learning, 193–216. Berlin, Heidelberg: Springer.; Szczygłowska T. Litotes in English research articles: disciplinary variation across life and social sciences. LINGUISTICA PRAGENSIA 1/2020. – Pp. 52-70. file:///C:/Users/tsnqb/Downloads/Litotes_in_English_research_articles_disciplinary.pdf

